

# NEFT MAHSULOTLARINI TO'G'RIDAN-TO'G'RI SOTISH TO'G'RISIDA

2022 y. "12" Subar

11 - sonli SHARTNOMA

SHaxrisabz sh.

Keyingi o'rinlarda "Sotuvchi" deb ataluvchi "Qarshi neft bazasi" mas'uliyati cheklangan jamiyati nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi direktor O.Ruziev bir tomondan va «Iste'molchi» deb ataluvchi Makruead, myellak nomidan Uppu ragul, Djanpuu nomidan Nejona asosida ish yurituvchi Daxurov, Erbolat ikkinchi tomondan, ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

## 1. SHARTNOMA MAZMUNI

1.1. «Sotuvchi» «Iste'molchi»ning buyurtmasi asosida tegishli rusum va miqdordagi neft mahsulotlarini etkazib berish, «Iste'molchi» esa etkazib berilgan neft mahsulotlarini qabul qilib olish va haqini to'lash majburiyatlarini ushbu shartnomada kelishilgan shartlarda bajarishni o'z zimmlariga oladilar.

1.2. Tomonlar o'zaro kelishilgan holda ma'lum davr (oylik, choraklik yoki yillik davr) uchun etkazib berilishi ko'zda tutilgan neft mahsulotlari turlari, assortimentlari va miqdorlarini ushbu shartnomaning 1-ilovasidagi spetsifikatsiya orqali belgilab oladilar.

Spetsifikatsiya ma'lumotlaridan tomonlar o'z shartnomaviy majburiyatlarini bajarishda, jumladan «Iste'molchi» buyurtmalarini shakllantirishda, «Sotuvchi» esa neft mahsulotlarining zarur zahirasini oldindan yaratishni rejalashtirishda foydalaniladilar.

## 2. NEFT MAHSULOTLARI NARXLARI VA HISOB – KITOB TARTIBI

2.1. SHartnomaning taxminiy umumiy summasi 10496893,44 (104 million 496 ming 893 va 44) so'mni tashkil qiladi.

2.2. Etkazib beriladigan neft mahsulotlarining narxlari «Sotuvchi» tomonidan ularni neftni qayta ishlash zavodlaridan birja savdolari orqali sotib olish va tashib keltirish xarajatlari hamda sotish bo'yicha neft baza ustamasidan (avtobenzin va dizel yonilg'isi bo'yicha yakuniy iste'molchiga sotilganda to'lanishi lozim bo'lgan aksiz solig'i hisobga olinmagan holda) shakllanadi.

2.3. «Sotuvchi» «Iste'molchi»ning buyurtmasi olingan zahoti etkazib berilishi so'ralgan neft mahsulotlarining o'sha kundagi joriy narxlarini unga ma'lum qiladi. «Iste'molchi» mazkur narxlar asosida buyurtmadagi neft mahsulotlari partiyasining tegishli hajmi uchun 100 foiz oldindan to'lovlarni 5 kun ichida amalga oshiradi. Aks holda «Sotuvchi» neft mahsulotlari uchun yangi joriy narxlarni qo'llashi mumkin.

2.4. Etkazib beriladigan neft mahsulotlari uchun to'lovlar «Sotuvchi»ning bankdagi hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

## 3. ETKAZIB BERISH TARTIBI VA MUDDATLARI

3.1. Neft mahsulotlari «Sotuvchi»ning omboridan yoki unga qarashli yoqilg'i quyush shaxobchalaridan «Iste'molchi»ning buyurtmasi va unda etkazilishi so'ralgan neft mahsulotlari uchun to'lovlar kelishilgan muddatda oldindan 100% amalga oshirganligini tasdiqlovchi to'lov hujjati nusxasi taqdim etilganda etkazib beriladi.

3.2. Neft mahsulotlari «Iste'molchi»ga «Sotuvchi»ning maxsus avtotransportida belgilangan tartibda ya'ni avtotransport xizmati xaqi evaziga etkazib beriladi. Neft mahsulotlarini shuningdek «Iste'molchi» tomonidan barcha yong'in va texnika xavfsizlik talablariga rioya qilish bo'yicha mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan holda o'ziga tegishli yoki ijaraga olingan maxsus transport vositasida olib ketilishi mumkin va bunday holatda tashish harajatlari qayta ko'rib chiqilmaydi

3.3. Neft mahsulotlari omboriga neft mahsulotini tashuvchi avtomobil sistemalari 1510-84 Davlat standarti talabiga javob berishi shart. Aks holda avtotransport vositalari ombor hududiga kiritilmaydi va ularga neft mahsulotlarining quyilishiga ruxsat etilmaydi. Bunday avtotransport vositalarining bo'sh ketishi uchun «Sotuvchi» javobgar bo'lmaydi.

3.4. Neft mahsulotlari qo'yilgan avtotsistemalar (Iste'molchining avtotransportida olib ketish xolatlari bundan mustasno) «Iste'molchi»ning talabiga binoan «Sotuvchi»ning yoki uning bo'linmalari tomonidan amaldagi me'yoriy texnik hujjatlarga (2517-2012 davlat standartiga) mos tarzda tamg'alanadi.

3.5. Neft mahsulotlari ushbu shartnomaning 3.1. bandida keltirilgan hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab 2 kun ichida etkazib beriladi. Neftni qayta ishlash zavodlaridan etkazib berilmasligi yoki temir yo'l tashkilotlarining aybi bilan yuzaga kelgan neft mahsulotlari ta'minotidagi uzilish holatlarida «Sotuvchi» tomonidan «Iste'molchi»ni bu haqda habardor qilingan holda tomonlar etkazib berishning boshqa muddatini o'zaro kelishib olishlari mumkin.

## 4. NEFT MAXSULOTLARINI QABUL QILISH TARTIBI

4.1. Neft mahsulotlari miqdor buyicha qabul qilish "Ishlab chiqarish texnika va halq iste'moli mollarini miqdor jixatdan qabul qilib olish tartibi to'g'risida"gi P-6-sonli va sifati bo'yicha esa "Ishlab chiqarish texnika va halq iste'moli mollarini sifat jixatdan qabul qilib olish tartibi to'g'risida"gi P-7-sonli yuriqnoma xamda boshqa me'yoriy xujjatlar talablari asosida amalga oshiriladi.

4.2. «Iste'molchi»ning vakili neft mahsulotlarini olayotgan vaqtda mahsulotning sifati va miqdorini joyida tekshirib oladi.

4.3. Neft mahsulotlarini etkazib berganlik to'g'risidagi tegishli hujjatlar «Sotuvchi»ning omborida yoki unga qarashli AYOQSHda, ayrim hollarda «Iste'molchi»ning hududida rasmiylashtiriladi va ularni «Iste'molchi» tomonidan bunga vakolat berilgan ishonchnoma asosida vakili imzolaydi va neft mahsulotlarini qabul qilib oladi. Egalik xuquqi, tasodifiy nobud bo'lishi, neft mahsulotlariga ziyon etish xavfi «Sotuvchi» ombori yoki AYOQSH xududidan chiqqan vaqtdan boshlab «Iste'molchi»ga o'tadi.



## YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyihaning turi: Shartnoma

2. Loyihaning nomi: Shahrisabz tuman irrigatsiya bo'limiga neft maxsulotini yetkazib berish xizmatlari to'g'risida.

“Sotuvchi” “Iste'molchi”ning buyurtmasi asosida tegishli rusum va miqdordagi neft mahsulotlarini yetkazib berish, “Iste'molchi” esa yetkazib berilgan neft mahsulotlarini qabul qilib olish va haqini to'lash majburiyatlarini ushbu shartnomada kelishilgan shartlarda bajarishni tog'risida shartnoma.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Shahrisabz tuman irrigatsiya bo'limi va “Qashqadaryo neft bazasi” MCHJ tomonidan 2022 yil 12 yanvar kuni ishlab chiqilgan.

Loyiha amaldagi “Fuqarolik” kodeks va “Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy ba'zasi” to'g'risidagi qonun va boshqa hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni tuzish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti

2022 yil 13 yanvar



Sh.Sultonov